

“O‘zbekiston texnologik metallar
kombinati” AJ yagona aksiyadorining
2025-yil 14 03 dagi

4 - sonli Qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

**“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" Qonuni va "O'ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI" Aksiyadorlik Jamiyati (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) ning Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Nizom Kuzatuv kengashining maqomini aniqlaydi, Kuzatuv kengashining ishini, Kuzatuv kengashining a'zolarini saylash (tayinlash) tartibini, shuningdek, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini muvofiqlashtiradi.

1.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

1.4. Kuzatuv kengashining vazifasi – Jamiyat rivojlanish strategiyasini va uzoq muddatli investitsiya siyosatini ishlab chiqarilishida rahbarlik qilish, Jamiyat ijroiya organi - Boshqaruvi faoliyatini nazorat qilish.

1.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan Kuzatuv kengashi a'zolari va Ijroiya organiga haq va to'lovlar to'lash to'g'risidagi nizomga muvofiq haq to'lanadi.

1.6. Mazkur Nizomda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi so'z birikmasi qo'llanilganda, Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoxud Qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha bir o'zi qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladigan bitta aksiyador - Jamiyat barcha oddiy aksiyalarining aksiyadori (keyingi o'rinlarda – Bosh aksiyador) nazarda tutiladi.

2. KUZATUV KENGASHINING VAKOLAT DOIRASI

2.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" Qonuniga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari oralig'ida aksiyadorlarning manfaatlarini ifodalaydi va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi.

2.2. Jamiyatning kundalik faoliyati va faoliyatini tezkor boshqarish masalalarini hal qilish Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kirmaydi, Jamiyat Ustavida aniqlangan, alohida aytib o'tilgan hollar bundan mustasno.

2.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash. Jamiyatni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishilganligi yuzasidan monitoring olib borish uchun zaruriyat tug'ilganda ekspertlarni jalb qilish;

2) Jamiyatning investitsiya va ilmiy-texnika siyosatini aniqlash;

3) aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va unga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq masalalarni qonunchilikka muvofiq hal qilish;

5) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

6) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

7) qonunchilikda nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

8) Jamiyat mol-mulkinging bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

9) Jamiyat nomidan Jamiyat Boshqaruvi Raisi bilan tuziladigan shartnomani imzolash

uchun vakolatli shaxslarni aniqlash, chet ellik menejerlar (nomzodlar) ishtiroki qoidasini belgilash;

10) Jamiyat Boshqaruvi Raisi tomonidan o'z vazifalarini uzoq vaqt yoki noaniq davr mobaynida bajarish imkoniyati bo'lmagan, shuningdek har qanday asoslarga ko'ra, Boshqaruv Raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollarda, Jamiyat Boshqaruvi Raisi funksiyasini bajaruvchi Jamiyatning mansabdor shaxsini aniqlash;

11) korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

12) ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

13) Jamiyat boshqaruv organlarining faoliyati tartibini belgilovchi ichki hujjatlarni tasdiqlash, tasdiqlanishi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan, shuningdek, Jamiyat Ustavi va Kuzatuv kengashining qarori bilan Jamiyat ijroiya organi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan ichki xujjatlar bundan mustasno;

14) Jamiyat faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Boshqaruvdan olish;

15) Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini Taftish komissiyasi tomonidan tekshirish to'g'risida tashabbus bilan chiqish;

16) Taftish komissiyasining Jamiyatda affilangan shaxslar bilan yoki yirik bitimlar mavjudligi to'g'risidagi xulosasini, shuningdek, bunday bitimlarni tuzish bo'yicha Qonun talablarini va Jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilinishini har chorakda ko'rib chiqish;

17) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Kuzatuv kengashi a'zolari va Ijroiya organiga haq va to'lovlar to'lash to'g'risidagi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Jamiyatning Taftish komissiyasiga to'lanadigan haqlar bo'yicha tavsiyalar berish, shuningdek, Jamiyatning nazorat organlariga va boshqaruv organlari kotiblariga to'lanadigan haqlarning miqdorlarini belgilash;

18) yillik hisobotni, yillik buxgalteriya hisob-kitobini, jumladan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni dastlabki tarzda tasdiqlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishni ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

19) Jamiyatning Zahira fondidan foydalanish, shuningdek, Jamiyatning boshqa fondlarining miqdori, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida qaror qabul qilish;

20) Jamiyatning filiallarini tashkil etish (tugatish) va vakolatxonalarini ochish (yopish);

21) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik Jamiyatlarini tashkil etish;

22) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

23) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtirok etishi va ishtirokini tugatish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish;

24) Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning balans qiymati yoki olinayotgan mol-mulkning qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortiq, lekin ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorini tashkil etsa;

25) Xizmat safarlariga, vakillik maqsadlariga, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlariga to'lovlarni amalga oshirish, reklama, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, moddiy, homiylik, gumanitar va boshqa yordamlarni ko'rsatish, xayriya jamg'armalari va boshqa maqsadlarga badal to'lash uchun belgilangan me'yorlardan ortiq mablag'larni ajratish tartibi bilan bog'liq bo'lgan ichki foydalanish hujjatlari, uslubiy nizomlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, normativlarni ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha Boshqaruvga topshiriqlar berish;

26) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordamini ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarining (Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar, bayonnoma qarorlari, topshiriqlari va h.k.) ijrosi bo'yicha qarorlar qabul qilish;

27) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan beg'araz bitimlarini tuzish to'g'risida (jumladan, xayriya, xayr-ehson qilish, hadya, homiylik yordami), a'zolik badallarini kiritish (boshqa xarajatlarni amalga oshirish) to'g'risida qaror qabul qilish, agar bunda, barcha to'lovlarining umumiy summasi chorak davomida O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining 15 000 baravaridan ortiq bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordamini ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarining (Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar, bayonnoma qarorlari, topshiriqlari va h.k.) ijrosi bo'yicha qarorlar qabul qilish hollari bundan mustasno. Bu to'g'ridagi axborotni barcha aksiyadorlarga oshkor qilish;

28) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarish to'g'risida, shuningdek, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

29) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haqning miqdorlarini Kuzatuv kengashi a'zolari va Ijroiya organiga haq va to'lovlar to'lash to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilash;

30) Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibini tayinlash;

31) Jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

32) Tegishli masalalar bo'yicha Kuzatuv kengashi huzurida qo'mitalar (ishchi guruhlar) tashkil qilish;

33) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va uni qonunchilik talablariga muvofiqligini muntazam ravishda baholash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

34) Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish to'g'risida, baholashni o'tkazish uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini aniqlash haqida qaror qabul qilish;

35) Jamiyat Boshqaruv a'zolarini lavozimga tayinlanash (saylash);

2.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilishi mumkin:

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

- Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyat Ustaviga Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini tayinlash, rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga qonunchilik va Jamiyat Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

2.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar O'zbekiston Respublikasi «Aksiyadorlik Jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunida va Jamiyat Ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

2.3 24-bandostida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqib ketgan a'zolar ovozi hisobga olinmaydi.

2.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv

kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

3. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINI SAYLASH

3.1. Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar kiritish va Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

3.2. Kuzatuv kengashining a'zolari 7 kishidan iborat bo'lib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan **uch** yil muddatga saylanadi.

3.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashi istalgan a'zosining (barcha a'zosining) vakolati muddatidan avval tugatilishi mumkin.

3.4. Quyidagi shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari mumkin emas:

- Jamiyatning Boshqaruvi va Taftish komissiyasi tarkibiga kiruvchi;
- o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi maqomiga to'g'ri kelmaydigan faoliyatga aloqador bo'lgan;

- Jamiyatda o'z yollanma mehnat faoliyatini o'rindoshlik tarzida olib boruvchi shaxslar.

3.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida bitta mustaqil a'zo saylanishi lozim.

3.6. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosiga qo'yidagi talablar qo'yiladi:

- so'nggi uch yil mobaynida Jamiyatda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs;

- Jamiyatning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan shaxs;

- Jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijozi va yetkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijozi va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

- Jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

- Jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo'lmagan shaxs;

- davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs.

Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosiga nomzodlarni kiritish va saylash qonunchilikka muvofiq amalga oshirilib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi.

Jamiyatning Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosi tarkibiga saylangan shaxs(lar) cheklanmagan tarzda qayta saylanish(lar)i mumkin. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi(lar)ining (barcha a'zolarining) vakolati muddatidan avval tugatilishi mumkin.

3.7. Kuzatuv kengashiga saylangan a'zo tomonidan Jamiyatning ustavi qo'pol tarzda buzilsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, ularning vakolatini muddatidan avval tugatish aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

3.8. Kuzatuv kengashi a'zolarini muddatidan avval qayta (yangidan) saylash yoki kengash tarkibiga yetmayotgan a'zolari saylashda, Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar

ko'rsatishga haqli.

Nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi takliflar Jamiyatning faoliyat yuritayotgan Kuzatuv kengashiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishidan 7 (yetti) kundan kechiktirmay kiritiladi. Bunday taklifda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek, nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

3.9. Kuzatuv kengashining Raisi Kuzatuv kengashiga nomzod qilib ko'rsatilayotgan nomzodlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni yig'ib ularni ovoz berish byulletenga kiritishi shart.

Aksiyadorlar tomonidan Kuzatuv kengashini tashkil etish uchun nomzodlar ko'rsatilmagan yoki nomzodlarning miqdori kam ko'rsatilgan holda, Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoki Bosh aksiyadori o'z hohishiga ko'ra nomzodlar ro'yxatini shakllantirish yoki to'ldirish huquqiga ega.

3.10. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi, bunda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

3.11. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

4. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARIGA NISBATAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

4.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi:

4.1.1. Oliy ma'lumotga ega bo'lishi;

4.1.2. Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tomonidan berilgan korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga yoki sertifikatga ega bo'lishi (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardan tashqari);

4.1.3. Quyidagi sohalarda bilimga va (yoki) yetarli tajribaga ega bo'lishi:

- strategik va antikrizis boshqaruv;
- korporativ moliya, xavf-menejment;
- korporativ huquq va boshqaruv.

4.1.4. Tegishli qonunlar, farmonlar, qarorlar, farmoyishlar va davlat hokimiyati vaboshqaruv organlarining boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarini bilishi lozim.

4.1.5. Korporativ axloqning belgilangan ma'naviy-etnik standartlariga rioya qilishi va uni qo'llashi.

4.1.6. Tashkilotchilik qobiliyatiga va boshqaruv organlarida amaliy ish tajribasiga ega bo'lishi yoki boshqa rahbarlik sohasida ma'muriy-boshqaruv funksiyalarini bajarishi.

Amaliy ish tajribasi quyidagi lavozimlardagi ish staji bilan aniqlanadi:

- Bosh direktor (direktorlar), bosh direktor o'rinbosari (direktorlar), kollegial ijroiya organi a'zosi;

- Boshqaruv organi rahbari yoki rahbar o'rinbosari;
- Bir yildan kam bo'lmagan davrda boshqaruv organining tarkibiy bo'linmasi rahbari;
- Uch yildan kam bo'lmagan davrda tijorat yoki ilmiy tashkilotning rahbari.

4.2. Kuzatuv kengashining a'zosi quyidagilarni bilishi shart:

- o'z ishini natija beradigan tarzda rejalashtirish va tashkil qilish;

- birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan ish va vazifalarni o'z vaqtida bajarish va muhim masalalarda e'tiborli bo'lish;

- o'z mustaqil fikrini bayon qilish va uni himoya qilish;

- tijorat istiqbollari va xatarlarini baholay olish;

- unumli va konstruktiv munozara olib borish;

- qatnashayotgan barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olish va asoslangan qarorlar qabul qilish;

- o'z vazifasini samarali bajarish uchun professional bilim va malakani qo'llash.

4.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan

qo'yiladigan qo'shimcha talablar Jamiyat ustavi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qaror bilan belgilanishi mumkin.

5. JAMIYAT KUZATUV KENGASHINING RAISI VA UNING FUNKSIYALARI

5.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi (qayta saylanadi).

5.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

5.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

5.4. Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashining Raisi Jamiyat ijroiya organining rahbari Boshqaruv Raisi bilan shartnomani imzolaydi.

6. KUZATUV KENGASHINING MAJLISI

6.1. Kuzatuv kengashi majlisi, zaruriyat tug'ilgan hollarda, hamda yil choragida kamida bir marta o'tkaziladi.

Moliya yili tugaganidan so'ng istalgan paytda, lekin aksiyadorlarning umumiy yig'ilishigacha 10 kundan kechiktirmay, Jamiyatning yillik balansi loyihasini, foyda va zararlar hisobvarag'ini va auditor hisobotini ko'rib chiqish maqsadida o'tkaziladigan yil yakuni bo'yicha majlis majburiy hisoblanadi. Majlislarda Jamiyat Boshqaruvi mansabdor shaxslarining Jamiyat faoliyatining hisobot davrdagi to'liq hisoboti yoki Jamiyatdagi joriy ahvol to'g'risidagi axborotlari eshutiladi.

Bundan tashqari, Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari Kuzatuv kengashi raisining o'z tashabbusi bilan, Kuzatuv kengashi a'zosi, taftish komissiyasi a'zosi, Jamiyatning ijroiya organi a'zosi, Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador), shuningdek, asoslangan sabablar mavjud bo'lgan taqdirda, Jamiyat Ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi ham yuzma-yuz (Kuzatuv kengashi a'zolarining birgalikda ishtirok etish yo'li bilan) shaklda, ham sirtqi shaklda (so'rov yo'li bilan) o'tkazilishi mumkin. Kuzatuv kengashining majlisi sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) o'tkazilgan taqdirda, qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

6.2. Kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi yozma shakldagi xabar uning xar bir a'zosiga yuboriladi. Xabarda yig'ilish kun tartibi, uni o'tkazish vaqti va joyi ko'rsatiladi. Xabarga, dastlabki tarzda tanishib chiqish uchun, kun tartibi bilan bog'liq bo'lgan barcha zarur hujjatlar ilova (1-ilova) qilinadi. Kun tartibiga kiritilmagan masalalar majlisda ko'rib chiqilmaydi.

6.3. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolari umumiy sonining 75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

6.4. Kuzatuv kengashi a'zolari ushbu Nizomning 6.5-bandida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra chiqib ketib, ularning soni 7 kishidan kam bo'lib qolgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi a'zolarini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqiriladi. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek, Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

6.5. Jamiyatning Ustaviga va/yoki qonunchilikka asosan Kuzatuv kengashining qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi belgilangan hollarda, quyidagi asoslarga ko'ra chiqib ketgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozi hisobga olinmaydi:

- vafot etgan, bedarak yo'qolgan va muloqotga noloyiq deb topilgan;
- sog'lig'i tufayli, manfaatlar kelishmovchiligi ro'y berganda, shuningdek boshqaholatlarda

o'z ixtiyori bilan yozma ravishdagi arizasiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosi vakolatlarini o'zidan soqit qilib chiqib ketayotgan shaxslar. Bunda chiqib ketish kuni Jamiyatga tegishli arizaning kelib tushgan kuni hisoblanadi;

- huquqni himoya qiluvchi organlarning qarorlari qonuniy kuchga kirishi munosabati bilan Kuzatuv kengashi a'zosi vakolati tugatilgan yoki to'xtatilgan shaxslar;

- hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa sabablarga ko'ra, o'z majburiyatini bajarish imkoniyati bo'lmagan shaxslar.

6.6. Zaruriyat tug'ilganda, Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashi barcha a'zolarining roziligiga ko'ra qoldirilishi (boshqa yangi muddatga ko'chirilishi) mumkin. Mazkur qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

6.7. Asoslangan va samarali qarorlar qabul qilishni ta'minlash maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining Raisi tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish bo'yicha vaqtinchalik va doimiy qo'mitalar (ishchi guruhlar) tashkil qilish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Qo'mitalarning (ishchi guruhlarining) asosiy funksiyasi bo'lib ularning faoliyat yo'nalishiga (Kuzatuv kengashining vakolati doirasida) tegishli bo'lgan masalalarni dastlabki tarzda har tomonlama o'rganish va ularni ko'rib chiqish yakuni bo'yicha Jamiyatning Kuzatuv kengashiga taqdim qilish uchun xulosa tayyorlash hisoblanadi.

Qo'mitalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb qilingan ekspertlardan (tegishli soha mutaxassislari, soha Oliy o'quv yurtlarining o'qituvchilari va boshqalardan) tashkil topadi. Qo'mitalarning faoliyat ko'rsatish tartibi va vakolatlari Jamiyat Kuzatuv kengashining ularni tashkil qilish to'g'risidagi qarori bilan belgilanadi. Qo'mitalar va ishchi guruhlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Jamiyatning ustavi va ichki nizomlariga, shuningdek Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq faoliyat yuritadi.

6.8. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashining bayonnomalari Kuzatuv kengashining kotibi tomonidan olib boriladi.

6.9. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilgandan so'ng o'n kundan kechiktirilmay tuziladi.

6.10. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

7. KUZATUV KENGASHI VA UNI A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Kuzatuv kengashi quyidagi huquqlarga ega:

- ishlarning hozirgi ahvoli to'g'risidagi barcha moliyaviy va ishlab-chiqarish axborotlarini, shuningdek, ixtiyoriy davr uchun Jamiyatning ishlab chiqarish-xo'jalik va tijorat faoliyatining asosiy natijalari, uning rivojlantirish rejalari to'g'risidagi barcha axborotlarni olish;

- o'z tashabbusiga ko'ra, shuningdek, oddiy aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1%ga egalik qiluvchi aksiyadorlarning tashabbusiga ko'ra, Jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy va ishlab-chiqarish faoliyatini navbatdagi va navbatdan tashqari taftish qilishni tashkil qilish;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan hollarda va Bosh aksiyador bilan kelishilgan holda, kelgusida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish sharti bilan Jamiyat Boshqaruvi Raisi lavozimlaridan chetlatish (ozod etilishi) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyat Boshqaruvi faoliyatini tekshirish vazifasini o'zining biror bir a'zosining zimmasiga yuklatish, shuningdek, alohida masalalarni tekshirish va aniqlash uchun shartnoma asosida auditorlik firmasi, baholash tashkiloti va boshqa mutaxassislarni jalb qilish.

7.2. Kuzatuv kengashining a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashish, yig'ilishda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qaror qabul qilishda aksiyadorning ishonchli vakili bo'lish;

- Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalarni hal qilish bo'yicha ishlarni boshqarish;

- Kuzatuv kengashida ma'lum funksiyalarni bajarib ishlaganlik uchun haq olish;

- cheklanmagan miqdorda Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga o'z-o'zini nomzod qilib ko'rsatish va saylanish.

7.3. Kuzatuv kengashi Jamiyat Boshqaruvining faoliyati qonun hujjatlari doirasida va Jamiyat Ustaviga hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiq amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi shart.

7.4. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yillik yig'ilishi muhokamasiga Jamiyat, Boshqaruv faoliyatiga baho beriladigan, shuningdek, Jamiyat faoliyatini yaxshilash to'g'risidagi takliflar bayon qilingan ma'ruzani taqdim qilishga majbur.

7.5. Kuzatuv kengashining a'zosi yozma ravishda Jamiyatni quyidagilar haqida xabardor qilishi shart:

- o'zi mustaqil ravishda yoki affillangan shaxsi (shaxslari) bilan birgalikda 20 yoki undan ortiq foiz ovoz beruvchi aksiyalariga (ulushlariga, paylariga) egalik qiladigan yuridik shaxslari to'g'risida;

- boshqaruv organlarida o'zi lavozim egallab turgan yuridik shaxslari to'g'risida;

- o'zlariga ma'lum bo'lgan ular manfaatdor shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan tuzilayotgan yoki tuzilishi kutilayotgan bitimlar to'g'risida;

- qonun hujjatlarida belgilangan hajm va muddatlarda boshqa ma'lumotlar to'g'risida.

7.6. Kuzatuv kengashining a'zolari quyidagi huquqlarga ega emas:

- Jamiyat bilan raqobatlashadigan korxonalarni o'zi tashkil qilishi yoki ularda ishtiroketishi, Kuzatuv kengashining manfaatdor bo'lmagan ko'pchilik a'zolari yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining ko'pchilik qismiga egalik qiluvchi aksiyadorlar tomonidan ruxsat berilgan hollar bundan mustasno;

- Jamiyat imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Jamiyatning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish.

7.7. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilishlari lozim, o'z vazifalarini vakolatlari doirasida halol, shuningdek, Jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga, Jamiyatning tijorat sirini oshkor qilmaslikka majburlirlar.

8. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

8.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari Jamiyat oldida qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga muvofiq vakolatlari doirasida o'z vazifalarini oqilona bajarishlari yoki bajarmasliklari natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun Boshqaruv bilan tengma-teng javobgardirlar.

8.2. Bunda ovoz berishda qatnashmagan yoki Jamiyatga zarar yetkazuvchi qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.3. Mazkur Nizomning 7-bo'limida va/yoki Jamiyatning Ustavida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyatga yetkazilgan zararni qoplashda to'liq hajmda javobgar bo'ladilar. Moddiy zararni qoplash hajmi tomonlarning kelishuviga muvofiq yoki sud tartibida belgilanadi.

8.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv direktori yoki a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

- chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

- Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

- Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik»;

8.5. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi uni tasdiqlash tartibi bilan

bir xil tartibda amalga oshiriladi.

Jamiyat Ustaviga hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiq amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi shart.

7.4. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yillik yig'ilishi muhokamasiga Jamiyat, Boshqaruvi faoliyatiga baho beriladigan, shuningdek, Jamiyat faoliyatini yaxshilash to'g'risidagi takliflar bayon qilingan ma'ruzani taqdim qilishga majbur.

7.5. Kuzatuv kengashining a'zosi yozma ravishda Jamiyatni quyidagilar haqida xabardor qilishi shart:

- o'zi mustaqil ravishda yoki affillangan shaxsi (shaxslari) bilan birgalikda 20 yoki undan ortiq foiz ovoz beruvchi aksiyalariga (ulushlariga, paylariga) egalik qiladigan yuridik shaxslari to'g'risida;

- boshqaruv organlarida o'zi lavozim egallab turgan yuridik shaxslari to'g'risida;
- o'zlariga ma'lum bo'lgan ular manfaatdor shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan tuzilayotgan yoki tuzilishi kutilayotgan bitimlar to'g'risida;

- qonun hujjatlarida belgilangan hajm va muddatlarda boshqa ma'lumotlar to'g'risida.

7.6. Kuzatuv kengashining a'zolari quyidagi huquqlarga ega emas:

- Jamiyat bilan raqobatlashadigan korxonalarni o'zi tashkil qilishi yoki ularda ishtiroketishi, Kuzatuv kengashining manfaatdor bo'lmagan ko'pchilik a'zolari yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining ko'pchilik qismiga egalik qiluvchi aksiyadorlar tomonidan ruxsat berilgan hollar bundan mustasno;

- Jamiyat imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Jamiyatning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish.

7.7. Kuzatuv kengashi a'zolari o'zlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilishlari lozim, o'z vazifalarini vakolatlari doirasida halol, shuningdek, Jamiyat manfaatlari yo'lida ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishga, Jamiyatning tijorat sirini oshkor qilmaslikka majburlar.

8. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

8.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari Jamiyat oldida qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga muvofiq vakolatlari doirasida o'z vazifalarini oqilona bajarishlari yoki bajarmasliklari natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun Boshqaruv bilan tengma-teng javobgardirlar.

8.2. Bunda ovoz berishda qatnashmagan yoki Jamiyatga zarar yetkazuvchi qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.3. Mazkur Nizomning 7-bo'limida va/yoki Jamiyatning Ustavida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyatga yetkazilgan zararni qoplashda to'liq hajmda javobgar bo'ladilar. Moddiy zararni qoplash hajmi tomonlarning kelishuviga muvofiq yoki sud tartibida belgilanadi.

8.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zosi, boshqaruv direktori yoki a'zosi, shuningdek ishonchli boshqaruvchi quyidagilar natijasida Jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

- chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

- Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

- Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik»;

8.5. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi uni tasdiqlash tartibi bilan bir xil tartibda amalga oshiriladi.

“O‘zTMK” AJ
Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi
Nizomiga 1-ilova

**“O‘zTMK” AJ
Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi
xabarnoma**

Hurmatli _____!
(F.I.Sh.)

“O‘zTMK” AJ Kuzatuv kengashi majlisi:

1. O‘tkazish sanasi va vaqti – _____
2. O‘tkazish joyi (manzili) – _____
_____ **da o‘tkazilishini ma’lum qilamiz.**

3. Kun tartibi:

Izoh: Xabarnomaga quyidagi materiallar ilova qilinadi:

1. _____ - _____ ta varaqda,
(materialning nomi)
2. _____ - _____ ta varaqda,
(materialning nomi)
3. _____ - _____ ta varaqda.
(materialning nomi)

“O‘zTMK” AJ
Kuzatuv kengashi
Raisi/kotibi:

(imzo)

/ _____ /
(F.I.Sh.)